

## Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


*2025- yil yanvar-mart oylari uchun*

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-mart oylarida, Toshkent viloyatida jami 6562,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 120,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>6 562,5</b>	<b>120,1</b>
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon sh.	167,8	107,9
Olmaliq sh.	1 177,2	2,1 m.
Angren sh.	114,7	111,1
Bekobod sh.	174,2	110,9
Ohangaron sh.	42,2	104,8
Chirchiq sh.	150,5	107,3
Yangiyo'l sh.	129,2	105,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on t.	70,2	109,0
Ohangaron t.	122,7	104,8
Bekobod t.	38,7	107,6
Bo'stonliq t.	166,1	106,5
Bo'ka t.	96,5	110,8
Quy Chirchiq t.	140,1	106,3
Zangiota t.	394,7	112,7
Yuqori Chirchiq t.	254,5	108,1
Qibray t.	432,4	108,7
Parkent t.	118,7	127,3
Piskent t.	110,1	107,3
O'rta Chirchiq t.	199,8	104,5

Chinoz t.	83,4	109,7
Yangiyo'l t.	141,8	108,1
Parkent t.	312,4	106,8
Yashirin iqtisod	1924,5	111,5

## II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 74,9 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 126,1 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,1 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 25,9 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 10,0 % ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1237,7	151,8	13,6
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	230,4	28,3	144,8
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	913,3	842,2	640,8
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	108,6	100,2	110,3
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2 763,0		
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	109,4		

## III. Qurilish ishlari hajminga korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-mart oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 403,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 186,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 21,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 36,5 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etgan holda 2 396,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 42,1 % ni yoki 2 763,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etdi.

### Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



### Hududlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari



	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1 403,1</b>	<b>2 396,4</b>	<b>2 763,0</b>	<b>186,6</b>	<b>109,4</b>	<b>109,4</b>
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon sh.	7,0	133,8	27,0	86,3	106,1	127,2
Olmaliq sh.	1 091,2	51,0	35,0	2,5 m.	53,0	110,1
Angren sh.	26,2	65,9	22,6	3,2 m.	108,8	64,9
Bekobod sh.	1,7	146,0	26,5	89,5	113,8	98,0
Ohangaron sh.	9,0	15,8	17,4	92,9	186,4	78,3
Chirchiq sh.	10,3	99,3	40,9	9,4 m.	87,8	159,2
Yangiyo'l sh.	26,0	87,2	16,0	0,0	78,3	144,5
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on t.	0,0	53,0	17,2	0,0	147,3	60,0
Ohangaron t.	0,0	95,1	27,6	0,0	141,5	62,3
Bekobod t.	0,3	24,4	14,0	8,9	191,8	71,4
Bo'stonliq t.	20,3	70,4	75,4	28,4	2,2 m.	145,8
Bo'ka t.	1,9	74,1	20,5	107,9	141,0	61,7
Quy Chirchiq t.	2,1	97,4	40,6	0,0	111,9	90,5
Zangiota t.	2,8	301,0	90,9	0,0	115,0	102,4
Yuqori Chirchiq t.	12,8	88,8	152,9	2,4 m.	42,8	7,6 m.
Qibray t.	73,9	217,4	141,1	74,0	147,5	93,4
Parkent t.	7,3	29,2	82,2	13,2 m.	50,1	244,0
Piskent t.	0,0	69,4	40,7	0,0	132,6	129,0
O'rta Chirchiq t.	0,1	131,8	67,9	0,4	102,1	134,7
Chinoz t.	0,5	52,9	30,0	0,0	174,7	64,9
Yangiyo'l t.	5,4	70,8	65,6	52,7	2,1 m.	74,4
Parkent t.	1,7	129,6	181,1	43,7	189,7	81,7
Yashirin iqtisod	102,6	292,0	1529,9	174,8	108,2	109,4

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Parkent tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 13,2m.), Chirchiq (9,4 m.) va Angren (3,2 m.) shaharlarida qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Bo'stonliq (2024- yilning mos davriga nisbatan 2,2 m.), Yangiyo'l (2,1 m.) va Toshkent (189,7 %) tumanlarida kuzatildi.

#### IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar



**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'lim

**Ijrochi:**

X. Usmonov  
71 203-45-00 (4520)

**Manzil:**

Toshkent shahar, Mirobod tumani,  
Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-uy

---